


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**REPRESENTATIVES OF ARABIC LITERATURE AND THEIR ARTISTIC HERITAGE****Dilfuzakhon I. Kozokboeva***PhD of Philological sciences, docent**Andijan State Institute of Foreign Languages*Email: shohbegim3@gmail.com*Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic literature, Imruul Qays, Al-Mutanabbiy, Naguib Mahfouz, Jahiliyya literature, ishtiyoq system, qasida, artistic heritage, theoretical linguistics.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article analyzes the rich historical development of Arabic literature and the artistic heritage of its prominent figures, such as Imruul Qays, Al-Mutanabbiy, and Naguib Mahfouz. For the first time, the analysis of literary works is considered in the context of the functional role of the Arabic root-and-pattern system and the category of i'rab in shaping the content of artistic texts. The research shows that figures of Arabic literature utilized the polysemantic potential of the language to express complex ideas systematically. Studying Arabic literature masterpieces based on theoretical linguistics is crucial for enhancing language competence and translation practices.

ARAB ADABIYOTI NAMOYONDALARI VA ULARNING BADIY MEROSI**Dilfuzaxon I. Qozoqboyeva***f.f.d (PhD), dotsent**Andijon davlat chet tillari instituti*Email: shohbegim3@gmail.com*Andijon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, Imruul Qays, Al-Mutanabbiy, Najib Mahfuz, jahiliya adabiyoti, ishtiyoq tizimi, qasida, badiiy meros, nazariy tilshunoslik.

Annatsiya: Mazkur maqolada arab adabiyotining boy tarixiy taraqqiyoti va uning Imruul Qays, Al-Mutanabbiy hamda Najib Mahfuz kabi yirik namoyondalarining badiiy merosi tahlil qilinadi. Maqolada adabiy asarlar tahlili ilk bor arab tilining ildiz-vazn tizimi va i'rob kategoriyasining badiiy matn mazmunini

shakllantirishdagi funksional roli kontekstida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, arab adabiyoti namoyondalari tilning polisemik imkoniyatlaridan foydalangan holda murakkab g'oyalarni tizimli va ixcham tarzda ifodalaganlar. Arab adabiyoti durdonalarini nazariy tilshunoslik asosida o'rganish talabalarning til kompetensiyasini oshirish va tarjima amaliyotini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

ПРЕДСТАВИТЕЛИ АРАБСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННОЕ НАСЛЕДИЕ

Дильфузахон И. Козокбоева

Кандидат филологических наук, доцент

Андижанский государственный институт иностранных языков

Email: shohbegim3@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская литература, Имрууль Кайс, Аль-Мутанабби, Нагиб Махфуз, доисламская литература, система иштикок, касида, художественное наследие, теоретическое языкознание.

Аннотация: В данной статье анализируется историческое развитие арабской литературы и художественное наследие её крупнейших представителей, таких как Имрууль Кайс, Аль-Мутанабби и Нагиб Махфуз. Анализ литературных произведений впервые рассматривается в контексте функциональной роли корневой системы и категории и'раба в формировании содержания художественного текста. Исследование показало, что представители арабской литературы, используя полисемические возможности языка, системно выражали сложные идеи. Изучение шедевров арабской литературы на основе теоретического языкознания имеет важное значение для повышения языковой компетенции и практики перевода.

Kirish. Arab adabiyoti insoniyat ma'naviy tafakkurining eng qadimgi, boy va uzluksiz rivojlanib kelayotgan qatlamlaridan biri bo'lib, u nafaqat Yaqin Sharq mintaqasi, balki butun jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojida fundamental o'rin tutadi. Ushbu adabiyotning ildizlari islomdan oldingi davrga – badaviy qabilalar orasida og'zaki shaklda yuksak cho'qqiga chiqqan she'riyat an'alariga borib taqaladi. Arab adabiyoti o'zining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida jahiliya davri qasidachiligidan tortib, abbosiylar davri oltin merosi va bugungi kunning

modernistik nasrigacha bo'lgan murakkab hamda sermazmun yo'lni bosib o'tdi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, arab adabiyoti durdonalarini tahlil qilishda faqatgina badiiy tasvir vositalariga suyanish kifoya qilmaydi; buning uchun tilning ichki nazariy tizimini, uning lingvistik qonuniyatlarini chuqur anglash talab etiladi.

Arab adabiyotining asosi hisoblangan she'riyat va nasr namunalari o'zining murakkab strukturaviy qurilishi, o'ziga xos vazn tizimi va nihoyatda boy semantik qatlamlari bilan boshqa tillar adabiyotidan ajralib turadi. Xususan, arab tili tabiatidagi flektivlik va derivatsion imkoniyatlar shoir va adiblarga bitta tushunchaning o'nlab nozik ma'no qirralarini yoritib berish imkonini taqdim etgan. Zamonaviy tilshunoslikda tilning nazariy tizimini – uning morfologik va sintaktik qurilishini chuqur tushunish adabiy matnlarning badiiy qimmatini, muallif uslubini va asarning funksional vazifalarini ilmiy tahlil qilishda eng asosiy kalit rolini o'ynaydi (Owens, 2006, p.81).

Shu nuqtai nazardan, arab adabiyoti namoyondalarining ijodini o'rganish bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bir tomondan, bu tadqiqotlar mumtoz matnlarning saqlanib qolishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, zamonaviy arab tilshunosligi va tarjimashunoslik sohasidagi metodologik bazani boyitishga xizmat qiladi. Arab adabiyoti vakillarining badiiy mahorati va ular qo'llagan lingvistik uslublarni o'rganish, talabalarda tilga nisbatan tizimli yondashuvni shakllantirish hamda sharqshunoslikning dolzarb masalalarini hal etishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari. Arab adabiyoti va uning namoyondalari merosini o'rganish jahon sharqshunoslik va tilshunoslik fanlarining fundamental yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarni shartli ravishda klassik filologik tahlil va zamonaviy lingvistik yondashuvlarga ajratish mumkin.

Klassik arab adabiyoti, xususan, jahiliya davri she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari S.P. Stetkevich tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Olimaning fikricha, islomdan oldingi davr qasidalari shunchaki badiiy asar emas, balki qadimgi arab jamiyatining ijtimoiy-madaniy va ritualistik hayotini aks ettiruvchi lisoniy koddir (Stetkevych, 1993). U "Muallaqot" shoirlari ijodini tahlil qilar ekan, matndagi har bir obrazning lisoniy va ramziy ma'nosini ochib berishga harakat qilgan.

Arab adabiyotining lisoniy qurilishi va uning evolyutsiyasini o'rganishda K. Versteeghning ishlari alohida ahamiyatga ega. Versteegh arab adabiyoti namunalari tahlil qilishda tilning tarixiy taraqqiyotini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi (Versteegh, 2014, p. 87). Uning yondashuvi adabiy matnlarni faqat estetik jihatdan emas, balki tilning tizimli o'zgarishi kontekstida tushunish imkonini beradi. Shuningdek, J. Owens arab adabiyoti tilini lingvistik tarix nuqtai nazaridan o'rganib, matnlarning sintaktik murakkabligi va ularning tarixiy ildizlari o'rtasidagi aloqani yoritib bergan (Owens, 2006, p. 104).

Zamonaviy arab nasri, xususan, Najib Mahfuz ijodi R. Allen tomonidan keng tadqiq etilgan. Allen arab romanining shakllanishida klassik an'analar va G'arb adabiy ta'sirining uyg'unligini tahlil qiladi (Allen, 2000). U Mahfuz asarlarini tahlil qilar ekan, adibning arab tilidagi realistlik tasvir imkoniyatlarini qanchalik kengaytirganiga urg'u beradi.

O'zbekistonlik olimlardan A. Abduazizov va N. Mahmudovlarning nazariy tilshunoslikka oid asarlari arab adabiyoti matnlarini lingvistik tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. N. Mahmudovning tilning nazariy grammatikasi va semantikasi haqidagi qarashlari adabiy matnlardagi ko'p ma'nolilik va gap qurilishi masalalarini tizimli o'rganishga yordam beradi (Mahmudov, 2012, p. 256).

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, arab adabiyoti namoyondalari merosi bugungi kunda ham filologik, ham kognitiv-lingvistik jihatdan yangicha tahlillarni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni adabiy merosni tilning nazariy tizimi bilan bog'liq holda tadqiq etishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil, taqqoslash metodi va ilmiy adabiyotlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanildi. Metodlar ketma-ket qo'llanilib, nazariy xulosalarni amaliy badiiy misollar bilan solishtirishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Arab adabiyotining ilk davrlari, xususan jahiliya davri she'riyatida uch undoshli ildiz (trilit) tizimi orqali hosil qilingan boy leksik qatlamlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Imruul Qays kabi "Muallaqot" shoirlari ijodida ildiz va vazn tizimi (ishtiyoq) orqali so'z yasashning yuqori darajadagi izchilligi ta'minlangan. Ildiz tizimi arab tilining morfologik boyligini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir (Haywood & Nahmad, 2005, p. 54).

Al-Mutanabbiy ijodida esa arab tilining fonetik boyligi, ayniqsa urg'u va intonatsiya naqshlari gap ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Arab adabiyoti namoyondalari o'z asarlarida gap tartibining moslashuvchanligidan samarali foydalanganlar. I'rob tizimi tufayli so'zlar o'rni almasha ham badiiy mazmun aniq saqlanib qolgan (Versteegh, 2014, p. 87).

Semantika sohasida ko'pma'nolilik (polisemiya) hodisalari klassik adabiyot tilining tarixiy-madaniy kontekstini boyitgan. Masalan, bitta so'zning bir necha xil ma'nolarda qo'llanilishi badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytirgan (Owens, 2006, p.104). Zamonaviy davrda Najib Mahfuz kabi adiblar ijodi arab nasrini jahon miqyosiga olib chiqdi va tilning semantik elastikligini isbotladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arab adabiyoti namoyondalarining badiiy merosi nafaqat g'oyaviy mazmuni, balki tilning ichki imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgani bilan ham ajralib turadi. Arab tili o'zining o'ziga xos derivatsion (so'z yasalishi) tabiati bilan ijodkorlarga cheksiz badiiy maydon taqdim etadi.

1. Mumtoz she'riyatda "Ishtiyoq" (Ildiz tizimi) va poetik mahorat

Arab adabiyotining tamal toshi hisoblangan jahiliya davri she'riyati, xususan Imruul Qays qasidalarini tilning morfologik boyligini namoyon etuvchi oliy namunadir. Arab tilidagi uch undoshli ildiz tizimi shoirlarga bitta o'zakdan turli vaznlar orqali ma'no jozibasini yaratish imkonini bergan.

Imruul Qays o'zining mashhur muallaqasida ot tasvirini berar ekan, «mukurrin, muqbilin, mudbirin» (hujumkor, olg'a intiluvchi, ortga qaytuvchi) sifatlarini qo'llaydi. Bu yerda barcha so'zlar bir xil vaznda keltirilgan bo'lib, ular o'zining shiddatli harakatini nafaqat ma'no, balki fonetik ohangdoshlik orqali ham ifodalaydi. Bu kabi ishtiyoq usuli matnning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi va o'quvchida dinamik tasavvur uyg'otadi. Haywood va Nahmad ta'kidlaganidek, ildiz tizimi arab tilining morfologik boyligini ta'minlovchi va badiiy tasvirni quvvatlovchi asosiy mexanizmdir (Haywood & Nahmad, 2005, p. 54).

2. Al-Mutanabbiy ijodida sintaktik moslashuvchanlik va i'rob

Abbosiy davri she'riyatining cho'qqisi bo'lgan Al-Mutanabbiy asarlarida arab tilining sintaktik imkoniyatlari o'zining yuksak ifodasini topgan. Arab tilidagi i'rob (kelishik qo'shimchalari) tizimi gapda so'zlar tartibi o'zgarganda ham mantiqiy aloqani saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shoirning "Ana-llazi nazara-l-a'ma ila adabi" (Men shunday insonmanki, mening adabiyotimga hatto ko'rlar ham nazar soladi) misrasida sub'ekt va ob'ektning joylashuvi urg'uni kuchaytirishga xizmat qiladi. I'rob tizimi tufayli Al-Mutanabbiy gap bo'laklari o'rnini erkin almashtirib, tushunchalarni ierarxik tartibda joylashtira olgan. Bu holat Versteegh tomonidan ta'kidlanganidek, arab tilida fe'l va o'zining gap boshida kelishi bilan bog'liq moslashuvchanlikning badiiy in'ikosidir (Versteegh, 2014, p. 87). Shoir bu orqali o'zining "men"ligini va ijodiy quvvatini sintaktik urg'u yordamida birinchi planga olib chiqadi.

3. Semantik polisemiya va metaforik ko'lam

Arab adabiyoti namoyondalari birgina so'zning ko'p ma'noliligidan (polisemiya) foydalanib, matn osti mazmunini (subtext) boyitganlar. Bu ayniqsa tasavvufiy she'riyatda va Najib Mahfuz kabi zamonaviy adiblar nasrida yaqqol ko'rinadi.

Masalan, arab tilidagi "Ayn" (عين) so'zi klassik matnlarda "ko'z", "buloq", "josus", "quyosh" yoki "narsaning ayni o'zi" kabi o'nlab ma'nolarni anglatadi. Shoirlar bir baytda ushbu so'zni qo'llash orqali bir vaqtning o'zida ham musaffolikni (buloq), ham mushohadani (ko'z) nazarda tutganlar. Owens ta'kidlaganidek, bunday semantik kenglik matnning intertekstual ishoralarini kuchaytiradi va kitobxondan yuksak lisoniy tayyorgarlikni talab qiladi (Owens, 2006, p. 104).

4. Zamonaviy nasrda tilning evolyutsiyasi

Najib Mahfuz ijodida klassik til elementlari zamonaviy ijtimoiy realizm bilan uyg'unlashdi. Uning "Qohira trilogiyasi" asarida tilning dialektal unsurlari va adabiy til (fusha) me'yorlari o'zaro dialektik aloqada tasvirlanadi. Bu esa arab tilining nafaqat qotib qolgan qoliplardan iboratligi, balki zamonaviy ijtimoiy hayotning barcha qirralarini ifodalashga qodir elastik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Muhokamalardan ko'rinib turibdiki, arab adabiyoti namoyondalari tilning fonetik, morfologik va semantik qatlamlarini shunchaki aloqa vositasi emas, balki estetik ta'sir quroliga aylantira olganlar. Bu esa arab tilini tizimlilik va o'zaro bog'liqlik tamoyillariga asoslangan mukammal lisoniy struktura sifatida namoyon etadi (Ryding, 2005, p. 39).

Xulosa. Arab adabiyoti namoyondalari merosini nazariy tilshunoslik masalalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish tilning nafaqat badiiy, balki murakkab tizimli strukturaga ega ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mumtoz qasidalardan tortib zamonaviy nasriy asarlargacha bo'lgan barcha namunalar arab tilining fonetik, morfologik, sintaktik va semantik qonuniyatlarining o'zaro uyg'unligi natijasida dunyoga kelgan. Xususan, ildiz tizimi (ishtiyoq) va i'rob kategoriyasi kabi xususiyatlar adiblar qo'lida shunchaki grammatik vosita emas, balki asarning g'oyaviy-badiiy ta'sirchanligini oshiruvchi kuchli lisoniy instrument bo'lib xizmat qilgan.

Nazariy bilimlar asosida adabiy asarlarni tadqiq etish quyidagi muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Talabalarning til kompetensiyasini oshirishda adabiy matnlarni lisoniy tahlil qilish ularning nutqiy mahorati va grammatik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bu jarayonda til birliklarining shakl va mazmun jihatdan qanday qilib yagona estetik butunlikni hosil qilishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Arab adabiyoti durdonalarini lingvistik kontekstda o'rganish tarjima amaliyotini takomillashtirishda muhim poydevor bo'ladi. Muallifning individual uslubini va matn osti (subtext) ma'nolarini tushunish asarning asl ruhini boshqa tillarga qayta yaratish imkonini beradi.

Arab tili tizimlilik va mantiqiy izchillikka asoslangan struktura sifatida (Ryding, 2005, p. 39) nafaqat lingvistik, balki madaniy ko'prik vazifasini ham o'taydi. Sharq adabiyoti namoyondalari ijodini tahlil qilish orqali islom sivilizatsiyasining intellektual salohiyatini chuqurroq anglash mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni korpus lingvistikasi va kognitiv tilshunoslik kabi zamonaviy metodlar bilan integratsiyada davom ettirish arab tilshunosligi sohasida yangi nazariy konsepsiyalarni boyitishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, til resurslarini raqamlashtirish va o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ryding K. (2005). Reference Grammar of Modern Standard Arabic. – Cambridge University Press. – 145 p.
2. Versteegh K. (2014). The Arabic Language. – Edinburgh University Press. – 290 p.
3. Owens J. (2006). Linguistic History of Arabic. – Oxford University Press. – 104 p.
4. Haywood J., Nahmad H. (2005). New Arabic Grammar of the Written Language. Routledge. – 254 p.
5. Abduazizov A.A. (2010). Theory of Linguistics. Nazariy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi. – 240 b.
6. Mahmudov N.M. (2012). Theoretical Grammar of the Uzbek Language. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan. – 256 p.
7. Nurmonov A. (2008). Foundations of Linguistic Theory. Nazariy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan. – 280 p.
8. Rasulov R. (2009). Introduction to Linguistics. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: University. – 220 p.